



To'yga to'yona: Termiz shahrida “Vatanparvarlar bog'i” foydalanishga topshirildi





Bugun, 18 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilinganligiga 32 yil to'ldi. Mazkur sana munosabati bilan Surxondaryo viloyatida ham qator tadbirlar bo'lib o'tmoqda.



Xususan, Termiz shahrida to'yga-to'yona sifatida voha ahli hamda yoshlari uchun 3,8 gektar maydonda yangidan barpo etilgan “Vatanparvarlar bog'i” foydalanishga topshirildi. Bog' 4 ta hududga, Vatanparvarlik, madaniy hordiq, sport va ma'naviy ozuqa hududlariga ajratilgan bo'lib, yo'nalishlarga mos ravishda jihozlangan.

Hududda o'rnatilgan tarixiy eksponatlar va harbiy texnikalar yoshlarga milliy armiyamizning tarixi va buguni haqida ma'lumotlar berish bilan birga ularda harbiy Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda xizmat qiladi. Shuningdek, bog' hududida yangi hunarmandchilik markazi va zamonaviy kutubxona ham tashkil etilgan.



Davlatimiz bayrog'ining 32 yillik bayrami tantanalari va “Vatanparvarlar bog'i”ning ochilish marosimida Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimov, davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari, harbiylar, nuroniylar hamda yoshlar ishtirok etishdi.

